

Yuldasheva Dilshoda Hoshimovna

**Teacher of the Department of Geography and Basics of Economic
Knowledge of Kokan State Pedagogical Institute named after Mukimi**

Yuldasheva Dilshoda Hoshimovna

**Muqimiy nomidagi Qo‘qon Davlat pedagogika instituti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi o‘qituvchisi**

FARG‘ONA VILOYATIDA AJRALISH JARAYONINI GEOGRAFIK

TAHLILI

Annotpsiya: Ushbu maqolada yosh oilalarda ajralish va ularning geografik tahlili borasida, avvalo Respublikamizning Farg‘ona viloyatining shaharlar kesimida ajralish va uning ko‘rsatkichlari to‘g‘risida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Oila, to‘la oila, tugalmas oila, nikoh, ajralish, demografik tarkib, urbanizatsiya, qishloq, shahar

GEOGRAPHICAL ANALYSIS OF THE PROCESS OF SEPARATION IN FERGANA REGION

Annotation: In this article, concerning divorces in young families and their geographical analysis, first of all, opinions and comments on divorces and their rates in the urban part of the Fergana region of our Republic are presented.

Key words: Famiy, complete family, incompiete family, marriage, divorce, demographic, composition,urbanization, village, city.

Mamlakatimizda ko‘p yillar davomida oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvatlash, ularni har tomonlama jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida barqarorliginita‘minlash jamiyatimizning ustivor yo‘nalishlaridan biri sanalgan. Binobarin, xalqmuayyan oilalarda tashkil topar ekan, uning barqarorligini, oilalarning tinch-totuvligi mamlakatning rivoji va istiqbolini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Hozirda O‘zbekistonda oilalar barqarorligini ta‘minlash, oilalarda ajralishlar sonini kamaytirish, oilani saqlab qolish imkonini beradigon

ko‘plab tashkiliy-huquqiy ijtimoiy siyosiy-choralar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.M. Mirziyoyov ta’kidlaganidek, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, honadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhini yaratish,-ma’rifiy ishlarini aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur. Ayollar o‘rtasida jinoyatchilik, oilalarda ajralishlar ko‘paygani, yoshlarni turli diniy-ekstirimitikoqimlar va terroristik tashkilotlar ta’siriga tushishi kabi halqimizga hos bo‘lmagan achchiq va noxush masalalar bilan bog‘liq. ”

Oila tarkibiga hamda rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillaridan biri-nikohning bekor etilishi ya’ni ajralishdir. Ma’lumki oilada er-xotinning ajralish nikohning bekor etilishi birinchi navbatda oilaning demografik tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi.([1]) Oila to‘la oiladan, tugalmas oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug‘ilishi ma’lum darajada kamayadi. Bu esa, o‘z navbatida oilaning davom etiruvchi avlod yaratilishiga, oilaning demografik rivojlanishiga ya’ni aholi takror barpo bo‘lishiga ta’sir etadi Ajralishjarayoning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu xususiyatlaridan biri uning qishloq va shahar aholisida keskin farq qilishidir. Ko‘pgina statistik ma’lumotlarda yosh oilalar o‘rtasida ajralishlar sonining o‘sib borish dinamikasini ko‘rsatadi va bu holat ayniqsa, yirik shaharlarda yuqori ekanligi hech birimizga sir emas.([2])

Shahar aholisida oilalarning buzilish holatlari qishloq aholisiga qaraganda 4-5 barobar yuqori bo‘lib, bunday farq respublikaningbarcha viloyatlarida kuzatilgan. Biz buni Respublikamizning Farg‘ona viloyatining misolida ko‘rib chiqamiz.

Nikohdan ajralishlar soni

(yillarda; birlikda)

1-jadval

(2019-2020 yy.)

<i>№</i>	<i>Hududlar</i>	<i>2019</i>	<i>2020</i>	<i>2021</i>
----------	-----------------	-------------	-------------	-------------

	<i>Fargʻona viloyati</i>	3192	2842	4285
1	Fargʻona shahri	459	394	618
2	Qoʻqon shahri	352	331	447
3	Quvasoy shahri	104	80	119
4	Margʻilon shahri	203	156	317

Manba: Fargʻonastatistikamaʼlumotlari.

Yuqorida jadval maʼlumotlari Fargʻona viloyatining shaharlarida ajralish koʻrsatkichlarini yildan yilga bir-biridan farq qiladi. Ohirgi uch yillikda eng koʻp ajralish koʻrsatkichi 2021 yilda Fargʻona shahriga toʻgʻri kelgan boʻlsa, eng past, 2020 yil Quvasoy shahriga toʻgʻri kelgan

Mutaxassislarining aytishicha, oiladagi shaxslararo munosabatlarning yomonlashuvi xususan, ajrimlar uchun asosiy sabab er-xotin oʻrtasidagi maishiy kelishmovchiliklar, qaynona, qaynota yoki uchinchi shaxs, umuman boshqalarning oila ishiga aralashuvi, farzandsizlik, ichkilikbozlik va moddiy yetishmovchiliklar, turmush oʻrtogʻining ishsizligi va iqtisodiy muammolar sabab boʻlmoqda. Oilaviy ajralishlar salbiy taʼsir koʻrsatadigan uch asosiy holatni tahlil qilsak : Jamiyat uchun – notoʻliq oilalar soni koʻpayadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafрати paydo boʻladi,; Erkak uchun – yolgʻizlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli kasalliklar; Ayol uchun – yolgʻizlikni his qilishning ortishi, qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli kasalliklar, oʻz joniga qad qilish va boshqalar. Bizning fikrimizcha, muammo qanchalik murakkab boʻlmasin, albatta, uning yechimi boʻladi. Jamiyatimiz hayotidagi erta ajrim va notoʻliq oilalarning sonini kamaytirishning samarali yechimlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Texnika-telefon, ijtimoiy tarmoqlar-Telegram, Instagram, Facebook ashunga oʻxshash inson tafakkuri mahsuli boʻlgan narsalarning hayotimizning

asosiy qismiga aylanib qolmasligiga yo`lga qo`ymaslik lozim. Oilaga uchun sarflanishi kerak bo`lgan vaqtning ijtimoiy tarmoqlar uchun sarflanishini oldini olish kerak.

2.Yosh oilalarga qaynona, qaynota va boshqa uchun uchinchilarning o`z boshimchalik bilan aralashuvini bartaraf etish.Ya`ni O`zbekiston Respublikasi 3-moddasida keltirilgan "oilaviy munosabatlarga aralashishga yo`l qo`yilmasligi" bandining amalda keng miqyosda qo`llanishi. 3.Yangi barpo etilayotgan oilalarda ikki taraf ham bir-birining yetti pushtini surishtirib, sovcilik orqali bir– biriga mos keladigan yoshlarni taqdirini bog`lash 4.Garchi ayni paytda FHDYO organlari qoshida oila dorilfununlari tashkil etilib, nikohlanuvchi yoshlar bir oylik o`quv kurslarida qatnashayotgan bo`lsa ham ajrimlar sonini kamaygani yo`q. Shu o`rinda aytish joizki, 18-20 yil oilada singdirilmagan ko`nikmalar bir oyda davomida tushuntirilishining imkoni yo`q. Shuning uchun har bir farzandni ota-onalari yoshlik davrlaridan katta hayotga tarbiyalab, zarur ko`nikmalarni berib borsa, namunali oila bo`lib ularga o`rnak bo`lsa vaziyat ancha ijobiy tarafga o`zgaradi.([3])

Xulosa qilib aytganda, hamma gap baribir yoshlarning oila haqidagi tasavvuri va uning atrofidagi masalalarga borib taqaladi. Kalavaning uchinida davlat tashkilotlarining yoki ota-onalarning qo`liga tutqazib qo`yish emas, chigallikni hamjihatlikda yechishga urunish, turli yo`llar bilan bo`sa-da, er-xotin o`rtasidagi ajralishlar sonini kamaytirish, oilalarning bir butunligi va barqarorligini saqlab qolish borasidagi mexanizmlarni kuchaytirish, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni kuchaytirish nafaqat, zamon talabi, ayni vaqtdasiz-u bizninga asosiy vazifamizdir.

Shahar aholisida ajralish ko`rsatkichini oshiradigon omillardan biri, bu urbanizatsiya va mehnatga layoqatli aholining harakatchanligining oshishi va aholi tarkibida boshqa millatlarning yuqoriligi xam o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 7 февраль 2017 йилдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги” тўғрисидаги ПФ-4947-сон Фармони
2. Akramova F.A., Abdullayeva R.M Sharq mutafakkirlarining oila hususidagi qarashlari. Toshkent :Shams, 2002.
2. Bo‘rieva M.R. Demografiya asoslari. Toshkent 2000.
3. Holmatova M, Murodova N, Yoshlar oilaviy xayot busag‘asida .Toshkent 2000.
4. Аҳолишунослик ва тараққиётни тушунган ҳолда кўмаклашиш. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Аҳолишунослик бўйича жамғармаси (UNFPA). Интернет-сайт: www.unfpa.uz.
5. <file:///C:/Users/ASUS/Downloads/Yo'ta0301.pdf>